

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
JAMOAT SOG'LIG'INI SAQLASH MAKTABI**

**“AHOLIGA KO'RSATILAYOTGAN BIRLAMCHI
TIBBIY-SANITARIYA YORDAMINI
TAKOMILLASHTIRISH”**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLAR TO`PLAMI

10-noyabr 2023

TAXRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI

1. **Mamatqulov B.M.** Toshkent tibbiyot akademiyasi
2. **Asadov D.A.** Tibbiyot xodimlari kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
3. **Rizayev J.O.** Samarqand davlat tibbiyot universiteti
4. **Sharafutdinova N.X.** Boshqirdiston davlat tibbiyot universiteti
5. **Iskandarova SH.T.** Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
6. **Xudayqulova G.K.** Toshkent tibbiyot akademiyasi
7. **Urazaliyeva I.R.** Toshkent tibbiyot akademiyasi

Texnik kotiblar

8. **To`rayev B.Sh.** Toshkent tibbiyot akademiyasi
9. **Nematov A.A.** Toshkent tibbiyot akademiyasi
10. **Raxmatullayeva M.Q.** Toshkent tibbiyot akademiyasi

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI MOODLE TIZIMIDA
O'QITISHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI**

**Xudoykulova G.K., Karimboyev Sh.D., Muyassarova M.M., Abdurashitova Sh.A,
Salimova M.R.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi (Toshkent, O'zbekiston)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-apreldagi "Tibbiy sanitariya sohasidagi kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish tadbirlari to'g'risida" gi M4-4666-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu yilda qilinadigan ishlarni amalga oshirish uchun Davlat dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unda ta'lim va fan to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni yangi tahrirlash loyihalarini ishlab chiqish ham ko'zda tutilgan. Yangi tahrirlash loyihalarida: ta'lim jarayonini zamonaviylash turini, qo'llab-quvvatlash, ilmiy g'oyalarning kengaytirish ularni samarali boshqarish, zamonaviy talablar, fan ta'lim va amaliyot uyg'unligini ta'minlash kabi masalalarga alohida e'tibor berish kerakligi aytib o'tilgan. Shunday qilib, OTM larda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini masofaviy ta'limda qo'llash asosan ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti bu texnik jihozlar bo'lsa, ikkinchi sharti esa maxsus dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlanganligidir. Texnik jihozlar bilan ta'minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qurilmalari, yuqori tezlikdagi Internet tarmoqlari, videokonferensiya jihozlari va hokazo. Dasturiy ta'minotga: mavjud qurilmalarni ishlatadigan dasturiy ta'minotlardan tortib, shu soha uchun mo'ljallangan dasturlar to'plami kiradi.

O'zbekiston Respublikasida koronavirus pandemiyasi kirib kelishi munosabati bilan, OTMlarda talabalarni onlayn tizimida Moodle platformasida o'quv ishlarni davom ettirildi. Moodle – inglizcha so'zlarning abbreviaturasi bo'lib Modular Object Oriented Dynamic Learning

Environment -Moodle li obyektga yo'naltirilgan dinamik o'qitish muhiti (MOYDO'M).

Moodle dasturi — bir fan doirasidagi modulli bloklarini yig'indisi bo'lib erishish lozim bo'lgan ditaktik maqsad, qo'llaniladigan usullar va vositalar yig'indisi hisoblanadi.

Moodle texnologiyalar asosida talabada quyidagi xususiyatlarni shakllantirishga erishish, o'z sohasi bo'yicha zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish, sohaga oid bilimlarning doimiy ravishda mustaqil oshirib borish, sohaga innovatsiyalar kiritish, mustaqil izlanish ijod qilish, o'z vaqtini rejalashtirish, boshqarish va o'z faoliyatini tashkil etishdan iborat.

O'qitishda modulli yondashuvning dolzarbligi talabalarning barcha fanlarni o'zlashtirishi uchun o'qitishni ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanishda yangi innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilishda muhim ahamiyatga ega. O'qitish modulini nazariy, amaliy, nazorat bloklariga ajratgan joyda o'quv mashg'ulotlari tashkil qilinadi. "Topshiriq" o'quv elementi o'qituvchilarga kommunikativ vazifalarni qo'shish, talabalar ishini to'plash, ularni baholash va taqriz taqdim etish imkonini beradi. Topshiriqni baholashda o'qituvchi sharhlar ko'rinishida taqrizlar qoldirishi, talabani to'g'rilangan javobini saqlagan faylni yoki audio taqrizni yuklashi mumkin. Javoblar esa, ballar, baholash shkalasi yoki rubrikalar kabi "ilg'or" usullar bilan baholanishi mumkin. Talabalarga esa, vazifalarini Word hujjatlari, elektron jadvallar, tasvirlar, audio yoki video fayllar kabi har qanday raqamli kontent (fayllar) shaklida yuborishlari mumkin. O'quv jarayonini Moodle tizimida yondashuvining bir qancha ahamiyatligi, dolzarbligi bilan birga kamchiliklari ham mavjud, ayniqsa tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining Moodle tizimida o'qitish bir qancha kamchiliklari mavjud. Masalan, talabalar nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llab mustahkamlashlari va parallel ravishda olib borishlari kerak, ya'ni tibbiyot yo'nalishida tehsil oladigan talabalarimiz amaliyotda bemorlar bilan ishlash, so'rab-surishtirish, kuratsiya qilish, tashxis qo'yishni o'rganishlari lozim. Undan tashqari, talabalar

o'rtasida so'rab — surishtirish ishlari olib borilganda ular Moodle tizimiga o'z ishlarini, o'z vaqtida joylashtira olmayotganliklari, nazariy amaliy va interaktiv bloklarda orqada qolib ketish kuzatilmoqda. O'rganib chiqilganda viloyatlarda yoki eng chetki tumanlarda internet tarmog'ini yaxshi joriy etilmaganligi, internet tezligining pastligi talabalarning o'zlashtirishida qiyinchiliklarga olib kelmoqda. O'quv jarayonini samarali olib borilishiga erishish maqsadida yuqorida kamchiliklar va muammolarga yechim topish lozim.